

**O'SMIR YOSHDAGI QIZLARING TARBIYASIDAGI O'ZGARISHLAR
VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI**

Maxamatiminova Durdonaxon Farxot qizi

TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Matkarimova Jamila Durdiyevna

TDTrU f.f.d.(DSc), v.b.professor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'sib kelayotgan o'smir yoshdagi qizlarning tarbiyaviy muammolari va ularning sabablari o'rganilgan. Ayniqsa, oilaviy muhit, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy madaniy qadriyatlarning o'zgarishi qizlarning tarbiyaviy holatiga qanday ta'sir etayotgani tahlil qilinadi. Kiberzo'ravonlik, depressiya, o'z-o'ziga zarar yetkazish va noto'g'ri ijtimoiy ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan muammolar chuqur o'rganilib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Maqola ota-onalar, pedagoglar va sotsiologlar uchun foydali ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы воспитания девочек-подростков и их причины. В частности, анализируется, как изменение семейной среды, социальных сетей и современных культурных ценностей влияет на воспитательное состояние девочек. Глубоко изучены проблемы, возникающие в результате кибернасилия, депрессии, самоповреждения и неправильного социального воздействия, указаны пути их устранения. Статья служит полезным источником информации для родителей, педагогов и социологов.*

Abstract: *This article examines the educational problems of adolescent girls and their causes. In particular, the influence of changes in the family environment, social networks, and modern cultural values on the upbringing of girls is analyzed. Problems arising as a result of cyberbullying, depression, self-harm, and negative social influences are deeply studied, and ways to eliminate them are indicated. The article serves as a useful source of information for parents, educators, and sociologists.*



Kalit soʻzlar: Oʻsmirlar, qizlar tarbiyasi, oilaviy muhit, ijtimoiy tarmoqlar, kiberzoʻravonlik, depressiya, psixosomatik muammolar, ota-ona va farzand munosabatlari, psixoaktiv moddalar, maʼnaviy qadriyatlar, guruh taʼsiri, hissiy oʻzgarishlar, sogʻlom turmush tarzi.

Ключевые слова: Подростки, воспитание девочек, семейная среда, социальные сети, кибернасилие, депрессия, психосоматические проблемы, отношения между родителями и детьми, психоактивные вещества, духовные ценности, групповое влияние, эмоциональные изменения, здоровый образ жизни.

Keywords: Adolescents, girls' upbringing, family environment, social networks, cyberbullying, depression, psychosomatic problems, parent-child relationships, psychoactive substances, spiritual values, group influence, emotional changes, healthy lifestyle.

Oʻsmirlik davri eng murakkab va ayni paytda muhim bosqichdir. Bu davrning eng muhim xususiyati shundaki, u oʻtish davrini bildiradi, yoshlikdan yetuklikka, bolalikdan katta hayotga. Qizlarimizda aksariyat holatlarda, ayni shu yoshda turli xil muammolar, ota-ona va yaqinlar bilan kelisha olmaslik, doim norozilik kayfiyatida yurish, yon atrofidagilarga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy xatti-harakatlar kuzatiladi. Oʻsmirlik davri qizlar uchun eng murakkab bosqichdir, chunki ular ruhiy, hissiy va turli hil gʻalayonlar mavjud boʻlgan eng qiyin davrlarni boshdan kechiradilar. Bejizga, muqaddas Qurʼoni Karim va Hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, maʼnaviyati, axloqi, eʼtiqodi har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirishda ayol va xotin-qizlarga bagʻishlangan qimmatli fiklar va oyatlar bayon qilinmagan. Har bir farzand boshlangʻich taʼlim-tarbiya va odob-axloqni avvalo onalarimiz va buvijonlarimizdan oʻrganishadi. Kelajak avlodning solih boʻlishi bugungi kun ayol va qizlarining soliha va har tomonlama yetuk boʻlishlariga har jihatdan bogʻliqdir. Zero, ayol sogʻlom boʻlsa, jamiyat sogʻlom boʻladi. Oʻsmir yoshdagi qizlarning tugʻilib oʻsgan oilasi, uni oʻrab turgan muhitning maʼnaviy saviyasi qanchalik yuqori boʻlsa, unda voyaga yetayotgan farzandning maʼnaviyati shunchalik yuksak boʻladi. Oʻzbekistonda oʻsmir qizlar muammolari boʻyicha bir



qator sotsiologlar va psixologlar tadqiqot olib borgan. Jumladan: Maxliyo Mirvaliyeva o'zining "O'smirlar sotsial statusini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar" nomli tadqiqotida o'smirlarning ijtimoiy statusiga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda o'smir qizlarning jamiyatga moslashuvi, ularning ta'lim va kasb tanlovi, oilaviy sharoitlari va do'stlari bilan munosabatlari muhim o'rin tutishi o'rganilgan. Dildora Isroilovna Jo'rayeva esa "O'smirlarda xulqiy og'ishlar namoyon etilishini o'rganish" nomli maqolasida o'smirlarning ruhiy va ijtimoiy muammolari, ularning depressiya va tashvishlanishga moyilligi haqida tadqiqot olib borgan. Mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston jamiyatida o'smir qizlarning ta'lim olish imkoniyatlari, psixologik muammolari va oilaviy tarbiyasi asosiy muammolar sirasiga kiradi.

O'smirlik davrida, qizlar hissiyotlarga boy, hayotiy jarayonlarga ko'proq ta'sirchan bo'lganligi sababli, atrofidagi ziddiyatlarga tobora sezgirroq bo'lib boradi. Bu davrda o'zlarini kattalardek tutishi, mustaqil deb bilishi ota-onalari bilan kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Agar ota-onalar juda qattiq nazorat o'rnatsa, turli xil taqiqlar qo'ysa yoki farzandlarining his-tuyg'ularini inobatga olmasa, bu munosabatlarning yomonlashishiga olib keladi. Natijada, ular qo'llab-quvvatlashni, mehnri, e'tiborni tashqi muhitdan izlashlari yoki nojo'ya yo'llarga kirib ketish xavfi ortishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o'smir qizlarning tarbiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 14-19 yoshdagi qizlarning 98% kiberzo'ravonlikka duch kelgan. Ijtimoiy tarmoqlarda kiberzo'ravonlik, kiberbullingga duch kelish o'smir qizlarning depressiya va xavotirli holatlarining rivojlanishi, suitsidal xulq-atvor, o'ziga zarar yetkazish xatti-harakatlari, psixoaktiv moddalardan foydalanish va psixosomatik alomatlarining ko'payishiga olib kelmoqda. O'smirlar orasida smartfon va internetga haddan tashqari bog'lanish, real hayotdagi ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi mumkin. 2024-yil global miqyosda o'tkazilgan "Pew Research Center" tadqiqotiga ko'ra, o'smirlarning 23% i kiberbullingga uchraganini bildirgan. Qizlar orasida bu ko'rsatkich 25%, o'g'il bolalar orasida esa 21% ni tashkil etgan.



Ajrashishlar sonini oshishi va yolg'iz ota-onalar tomonidan tarbiyalanayotgan qizlarning soni ko'payishi, oilaviy qadriyatlarning yangi avlodlar tomonidan boshqacha talqin qilinishi, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri (Instagram, Tik Tok, Telegram) bu omillarning barchasi o'smir qizlarning hayot tarzi, xulq-atvori va jamiyatdagi o'rnini o'zgartirib bormoqda. Misol uchun: O'smir yoshidagi qiz Tik Tok va Instagram orqali turli blogerlardan ta'sirlanib, yangi urfdagi kiyimlar, taqinchoqlar olishni istaydi va "mukammal hayot" tushunchalariga ergashadi. Shu sababli, u o'z tashqi ko'rinishiga haddan tashqari e'tibor berib, ota-onasidan qimmatbaho kiyim va taqinchoqlar talab qiladi. Natijada, ota-onasi bilan ziddiyatga kirishadi va oilaviy qadriyatlarni ikkinchi darajaga qo'yadi.

Ba'zi blogerlar va mashhurlar o'smir qizlarda, sevgi munosabatlari va hayot tarzi haqida idealizatsiyalangan noto'g'ri tasavvurlarni shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Buning oqibatida esa ayrim qizlar yoshi yetmagan holda hayotiy qarorlar qabul qilib, erta homiladorlik, nikohsiz munosabatlar yoki oilaviy inqirozlar kabi muammolarga duch kelishmoqda. Natijada, hayotning og'ir sinovlariga hali tayyor bo'lmagan o'smir qiz majburiy ravishda kattalardek mas'uliyatni zimmasiga olishga majbur bo'ladi. Uning hali shakllanib ulgurmagan kelajagi murakkablashadi, orzulari cheklovlarga duch keladi, o'zi esa yolg'iz qolib na moddiy, na ma'naviy yordam topa oladi. Uni ta'lim olishi to'xtaydi. Va eng muhimi, bu jarayonda dunyoga bir begunoh farzand keladi. U mehr, to'laqonli oilaviy muhabbat va mustahkam tarbiyadan mahrum holda ulg'ayishi mumkin. Shu bois, jamiyat ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish va ularning hayotiy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishlariga ko'maklashishlari zarur.

Oilada ota-ona munosabatlarining sog'lom bo'lmasligi, tez-tez oilaviy mojarolar, ota farzandlarining ko'z oldida onasini urishi, haqoratlashi, tazyiq o'tkazishi yosh avlod uchun ayniqsa, o'smir yoshdagi qizlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda qizlar o'z muammolarini tashqaridan hal qilishga harakat qiladilar. Bu esa noto'g'ri do'stlar orttirish yoki zararli muhitga tushib qolish xavfini oshiradi. O'smirlik davrida qizlar o'z tengdoshlarining fikriga juda ahamiyat berishadi. Noto'g'ri ijtimoiy muhit yoki noto'g'ri do'stlik salbiy oqibatlarga olib



kelishi mumkin. Ko'p holatlarda o'smirlar va yoshlar orasida guruh-guruhga ajralish, boshqa tengdoshlari bilan muloqot qilmaslik, o'zini boshqalardan ustun deb bilish holatlari kuzatiladi. O'smir qizlar orasida avj olgan guruhlariga bo'linish, kiyim-kechak va tashqi ko'rinish bo'yicha ajratish, kamsitish va mazax qilish ularning ruhiyatiga va tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon depressiya, tashvish, o'ziga ishonchsizlik va o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklarga olib kelishi mumkin. Qizlarning ruhiyati zaifroq, shu sababli ular his-tuyg'ularga haddan tashqari berilib ketish oqibatida, ichki dunyosiga o'ralib qoladi. Buning natijasida tushkunlikka tushib, sigaret chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish yoki narkotik moddalarni sinab ko'rish, ba'zi hollarda o'z joniga qasd qilish holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun o'smir yoshlarga, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yomon odatlarning salbiy oqibatlari, hissiy o'zgarishlarning normal holat ekanligi va stressni boshqarish usullarini o'rgatish zarur. Ota-ona va o'qituvchilar o'zlari namuna ko'rsatib, sog'lom muhit yaratishlari kerak.

Xulosa o'rnida shu narsaga alohida e'tibor berish lozimki, o'smir yoshdagi qizlarning tarbiyasi bugungi jamiyat uchun dolzarb masala bo'lib, ularning hissiy, ruhiy va ijtimoiy o'sishiga ta'sir etuvchi omillar keng ko'lamda o'rganilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'sish davridagi muammolar ko'pincha oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri va zamonaviy madaniy qadriyatlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Qizlar o'z tengdoshlari bilan muomala qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi, kiberzo'ravonlik, depressiya, o'z-o'ziga zarar yetkazish va psixoaktiv moddalarga qaramlik xavfini oshirishi mumkin.

Maqolada oilaviy muhit va ota-onalar bilan bo'ladigan muloqotning roli alohida ta'kidlangan. Nazoratning haddan tashqari kuchaytirilishi yoki befarqlik, qizlarning noto'g'ri do'stlar orttirishi va noxush qarorlar qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga kuchli ta'siri ularning tashqi ko'rinish va hayotiy ideallar borasida noto'g'ri tasavvurlar shakllanishiga olib keladi. Shu bois, ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat tomonidan ma'naviy tarbiyani mustahkamlash, sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish va qizlarning hissiy farovonligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Xamidxonova O'g'ilxon. O'SMIR QIZLARDA IJOBIY XULQNI SHAKLLANTIRISHNING JTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. 2022. 5, 87-90-b.
<https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/103/98>
2. Xasanboy Abdusalomovich Ibragimov. O'SMIRLIK DAVRINING FIZIOLOGIK-PSIXOLOGIK VA JISMONIY JIHATDAN O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. 2021. 2, 843-847-b. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davrining-fiziologik-psixologik-va-jismoniy-jihatdan-o-ziga-xos-xususiyatlari>
3. Qo'chqorova Aysha Oltibayevna. O'SMIR QIZLAR TARBIYASI VA KITOBXONLIK. 2024. 108-b.
<https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/T2YEkUnmpSIzrXK.pdf>
4. Rajapov Vahobjon To'rajonovich. O'SMIR YOSHDAGI QIZLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINING O'RNI. 2023. 394-398-b.
<https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0012/S-87.pdf>
5. <https://m.aniiq.uz/uz/yangiliklar/qiz-bola-tarbiyasidagi-bir-xato-butun-jamiyatni-katta-xatarga-quyishi-mumkin>